

YASSAVIY HIKMATLARI TAHLILI, (OBRAZ, MAVZU, TIMSOL)

Hamdullayeva Gulsevar

Kattaqo'rg'on davlat pedagogika instituti
Filologiya va ijtimoiy fanlar fakulteti o'zbek tili guruhi.

Suyunova Dilbar

Kattaqo'rg'on davlat pedagogika o'qituvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20186061>

Annotatsiya. Mazkur maqolada Ahmad Yassaviy hikmatlarining badiiy va g'oyaviy xususiyatlari tahlil qilinadi. Xususan, hikmatlardagi obrazlar tizimi, asosiy mavzular va timsollarning ma'naviy-falsafiy mazmuni yoritiladi. Tadqiqotda Yassaviy ijodining tasavvufiy mohiyati, inson kamoloti, nafs tarbiyasi, ma'rifat va haqiqat yo'lidagi ruhiy kechinmalar alohida ko'rsatib beriladi. Ahmad Yassaviy hikmatlari turkiy tasavvuf adabiyotining xalqona va ma'rifiy yo'nalishdagi eng muhim yodgorliklaridan biri sifatida baholanadi.

Annotation. This article analyzes the artistic and ideological features of Ahmad Yassawi's hikmats. In particular, it examines the system of images, the main themes, and the philosophical meaning of symbols used in the hikmats. The study highlights the mystical essence of Yassawi's creativity, human spiritual perfection, the struggle against the ego, and inner experiences on the path of knowledge and truth. Ahmad Yassawi's hikmats are regarded as one of the most important monuments of Turkic mystical literature in a folk and educational style.

Аннотация. В данной статье анализируются художественные и идейные особенности хикматов Ахмада Яссави. В частности, рассматриваются система образов, основные темы и философское значение символов, использованных в хикматах. В исследовании подчеркиваются суфийская сущность творчества Яссави, духовное совершенство человека, борьба с нафсом и внутренние переживания на пути к знанию и истине. Хикматы Ахмада Яссави оцениваются как один из важнейших памятников тюркской суфийской литературы в народно-поучительном стиле.

Kalit so'zlar: Ahmad Yassaviy, hikmat, obraz, mavzu, timsol, tasavvuf, nafs, ma'rifat, qalb, yo'l.

Kirish

O'zbek mumtoz adabiyotida ishq talqinlari ko'p uchraydi. Jumladan, Ahmad Yassaviy hikmatlarida ishq va oshiq mavzusi boshqa mumtoz adabiyot namoyandalaridan farqli o'ziga xos tarzda tasvir etiladi. Ahmad Yassaviy Allohga bo'lgan ishqni haqiqiy sanaydi. Chin oshiqning sifatlariga diqqat qaratadi. Xo'sh, chin oshiq kim? Shoir nazdida chin oshiq bo'lish uchun "Alloh debon ichga nur"ni to'ldirish, butun tanadagi tomir-u suyaklar larzaga kelgan holda "Haq zikri"ni qilish, rohat farog'atdan kechish lozim bo'ladi. Shoir ishqni bebaho dur-gavharga o'xshatadi. Biroq bunday gavharni ishqsiz, nafs qutqusiga uchragan "har nomardga sotib" bo'lmaydi.

Shu o'rinda Ahmad Yassaviyning barcha hikmatlariga xos yana bir xususiyatni ta'kidlash o'rinli bo'ladi. Bu nafsqa qarshi kurash masalasi. Shoir hamma vaqt nafsdek baloyi azimni yenga olmagan odamga achinadi, unga tanbeh beradi. Nafsini jilovlagan odam sabr-qanoatga erishadi. Agar oshiq bo'lsa, bunday sabrli ishq egasining "mahshar kunida armoni" bo'lmaydi.

Ishq muhokamasiga doir ushbu hikmatning boshqa bir bandida "Nafsni tepib dargohiga loyiq bo'lg'il" deb ta'kidlanadi. Bu ham nafsini yenggan va uning istaklarini bartaraf etgan odamgina chin oshqlik martabasiga ko'tarila olishiga doir mulohazadir.

Ishqqa tushding, o'tga tushding, kuyib o'lding,
Parvonadek jondin kechib axgar bo'lding,
Dardga to'lding, g'amga to'lding, telba bo'lding,
Ishq dardini so'rsang hargiz darmoni yo'q.

Ushbu bandda chin oshiqning holi yana ham kuchaytirib ko'rsatiladi. Ishq dardiga uchragan odamda juda katta ruhiy o'zgarishlar bo'ladi. Ahmad Yassaviy uni bamisoli o'tga tushgan odam holiga qiyoslaydi. Ikkinchidan, sham tebrasida aylanib kuygan, axgar (laxcha cho'g') bo'lgan kapalakka o'xshatadi. Eng muhimi, ishq o'tida dard, g'am hamda telbalik bor.

Ammo bu dardning darmoni topilgan emas. Boshqa bir mumtoz va oshiq shoir ta'biri bilan aytganda "bu dardni bedavo derlar" (Mashrab). Ishqning bunday xususiyatlarini ta'riflab Alisher Navoiy "Mahbub ul-qulub" asarida yozadi: "buni ko'rmagan kishi bilmas va bunga yetmagan kishi bovar (ishonch) qilmaskim, hijron-u firoq mundin iboratdur..." Shu ishq tavsifiga bag'ishlab Navoiy "Layli va Majun" dostonini yozgani sizga ma'lum.

Ahmad Yassaviy ta'kidlaydiki, ishq odamning "Majnun sifat aqlin olib Laylo qilur", yana davomidan ta'kidlaydi – "Ollloh haqqi bu so'zlarni yolg'oni yo'q". Demak, Yassaviy hikmatlaridagi ishq mavzusini, oshiq holini bilish uchun nisbatan kengroq tushunchalar, sharq mumtoz adabiyotidagi o'ziga xos tasavvuf falsafasini ham anglash kerak bo'ladi. Ahmad Yassaviy hikmatlari fikrni kengaytirish uchun vosita, uni o'qib, anglash orqali hikmatgo'y shoir ruhini, dardini, qalbini, so'zini anglash mumkin, albatta.

Ahmad Yassaviy turkiy tasavvuf adabiyotining asoschilaridan biri bo'lib, uning "Devoni hikmat" asari xalq ma'naviy hayotida alohida o'rin egallaydi. Yassaviy hikmatlari diniy-ma'rifiy mazmuni bilan birga, badiiy-estetik jihatdan ham yuksak qiymatga ega. Ularning asosiy mavzusi insonni ruhiy poklanish, nafsni yengish va Haq yo'lida komillikka erishishga da'vat etishdan iborat. Shoir murakkab tasavvufiy g'oyalarni xalqona til, sodda ifoda va ta'sirchan timsollar orqali bayon etadi. Ahmad Yassaviy ijodini tahlil qilishda obraz, mavzu va timsol masalalari muhim o'rin tutadi. Chunki hikmatlarda fikr bevosita bayon qilinmay, ko'pincha ramziy va majoziy vositalar orqali ochiladi. Bu esa asarlarning ma'naviy mazmunini yanada chuqurlashtiradi.

Asosiy qism

Ahmad Yassaviyning "Rabbim yodi ulug' yoddur aytur bo'lsam" deb boshlanadigan hikmati unchalik murakkab emas. Birinchi misradayoq she'r mavzu yo'nalishini anglab olish mumkin. Zotan, Yaratguvchini yodlash odamni xotirjam qiladi, achchiq tili shirin tilga aylanadi.

Rabbim yodi ulug' yoddur aytur bo'lsam,
Asal yanglig' suchuk bo'lur tilim mening.
O'zim faqir, qildim muqir, bo'ldim haqir,
Qanot qoqar uchar qushdek ko'nglim mening.

Shoir o'zini juda kamtar tutadi va shu kamtarligi ortidan ko'ngli yuksaklikka parvoz qiladi. "Muqir" arabcha so'z bo'lib "iqror bo'lmoq, bo'yniga olmoq" ma'nolarini anglatadi.

Shoir faqatgina faqir-u haqirligini emas, balki Yaratguvchiga banda ekaniga iqror bo'ladi.

Adib hikmatning har bandida ichki qofiyalarni qo'llab, o'z ichki kayfiyati, holini o'ynoqi bir uslubda bayon qilar ekan, shu mamuniyat sabablarini ham "nafsim qochdi" deb o'z nafsini yengganiga olib borib bog'laydi; o'zini tuproqqa tenglashtiradi.

Ahmad Yassaviy hikmatlarining markazida insonning ichki dunyosi, ma'naviy kamoloti va Haqqa yetishish g'oyasi turadi. Shoir nazarida haqiqiy saodat tashqi boylik yoki dunyoviy mavqeda emas, balki qalb pokligi, ixlos va ma'rifatda namoyon bo'ladi.

Shu sababli hikmatlarda tavba, sabr, shukur, ixlos, ma'rifat, murshidga sadoqat kabi tushunchalar yetakchi mavzular sifatida ko'rinadi. Hikmatlardagi eng muhim obrazlardan bir nafs obrazidir. Nafs insonni gunohga boshlovchi, uni Haq yo'lidan chalg'ituvchi kuch sifatida tasvirlanadi. Yassaviy nafsga qarshi kurashni ruhiy yuksalishning asosiy sharti deb biladi. Bu obraz orqali shoir ichki kurash, o'zini tiyish va ma'naviy poklanish g'oyasini ilgari suradi. Yana bir muhim obraz qalb obrazi. Qalb insonning ma'naviy markazi sifatida talqin qilinadi. Qalb pok bo'lsa, unda ilohiy nur jilva qiladi; qalb g'ubor bilan qoplansa, u ruhiy zulmatga yuz tutadi.

Shuning uchun Yassaviy hikmatlarida qalbni tozalash, uni zikr va ma'rifat bilan charxlash g'oyasi doimiy ravishda takrorlanadi. Yo'l obrazi ham hikmatlarda katta ahamiyatga ega. Bu obraz ma'naviy sayr, Haqqa eltuvchi ruhiy safar ma'nosini bildiradi. Tasavvufiy talqinda bu yo'l oson emas, u sabr, riyozat, tavba va ixlosni talab etadi. Shoir yo'l obrazini insonning ma'naviy kamolot sari bosqichma-bosqich harakatini ifodalash uchun ishlatadi.

Timsol masalasida Ahmad Yassaviy hikmatlari nihoyatda boy. Tuproq timsoli kamtarlik, o'zini past tutish va nafsoniylikdan voz kechishni anglatadi. Tasavvufda tuproqsifatlik komillikka eltuvchi muhim fazilat hisoblanadi. Nur timsoli esa hidoyat, ma'rifat va Haq haqiqatining ramzidir. Nur inson qalbini yorituvchi, uni jaholat zulmatidan olib chiquvchi kuch sifatida ko'rsatiladi. Gul timsoli go'zallik, ma'naviy latofat va ilohiy jamolni ifodalaydi.

Dunyo timsoli esa foniqlik, beqarorlik va aldovga to'la hayotni anglatadi. Yassaviy dunyoga haddan tashqari bog'lanishni ma'naviy halokat sababi sifatida talqin qiladi. Ko'ngil timsoli esa tasavvufda eng muqaddas makonlardan biri bo'lib, Alloh nuri tushadigan joy sifatida qaraladi. Yassaviy har vaqt nafs haqida gapirganida unga insonning kamolotiga xalaqit beradigan yovuz va yaramas kuch sifatida baho beradi. Nafsga "shum" sifati beriladi.

Shuningdek, shoir "nafsi bad", "nafs yo'li", "nafs ilgi" singari istioralarni ham qo'llaydi.

Adib to'g'ridan to'g'ri nafsga qarshi kurashni, uning yo'rig'iga yurmaslikni targ'ib qiladi. Nafsning domiga ilinish insonni qanchalik yer bilan yakson qilishini juda yorqin ifodalarda ko'rsatib beradi.

Boshqa bir she'rida shunga urg'u berib yozadi:

Nafs yo'lig'a kirgan kishi rasvo bo'lur,
Yo'ldan ozib, toyib, to'zib gumroh bo'lur.
Yotsa, qo'psa shayton bilan hamroh bo'lur,
Nafsni tepkil, nafsni tepkil, ey badkirdor.

Ahmad Yassaviy she'riyatining keng tarqalishi va xalq orasida sevib o'qilishining asosiy sabablaridan biri uning xalq og'zaki ijodiga nihoyatda yaqinligidadir. Hikmatlar, asosan, to'rtlik va murabba' shaklida bitilgan.

Rohat tashlab, jon mehnatim xushlag'anlar,
Saharlarda jonin qiynab ishlag'anlar,
Ho-yu havas, moumonni tashlag'anlar
Chin oshiqdir, hargiz oni yolg'oni yo'q.

Ahmad Yassaviy hikmatlarining tasavvuf falsafasiga tegishli jihatlari ustida mulohaza yuritganda, oshiqning shariat, tariqat, ma'rifat bosqichlaridan o'tib haqiqat martabasiga yetishini eslash o'rinli bo'ladi. Shoir bu bosqichlarda islom dini hukmlarini o'zida mujassam etgan shariatni yaxshi bilish zarurligini o'qitadi. Shuning uchun ham "Shariatsiz tariqatga kirib bo'lmas", "Tariqatga shariatsiz kirganlarni, Shayton kelib imonini olur ermish" yoki "So'finaqsh bo'lding valek hargiz musulmon bo'lmading" kabi misralarni yozadi. Insonning so'zi amaliga, tashqi ko'rinishi ichki olamiga mos kelishi lozim.

Tashqaridan qaraganda odam taqvodor soʻfiga oʻxshash – soʻfinaqsh boʻlishi, lekin u amalsiz boʻlishi mumkin, bundaylarga Yassaviy tanbeh berib “hargiz musulmon” boʻlmading deydi.

Ahmad Yassaviy tasavvufga inson maʼnaviyatini yuksaltiruvchi muhim omil sifatida qaraydi. Tasavvuf negizida ruhiy tarbiya turadi. Ruhiy tarbiya bashariyatning toʻgʻri yoʻldan yurishiga yordam beradi. Toʻgʻri yoʻl esa haqiqatni anglashga olib kelishi lozim. Haqiqatni anglash oʻzlikni anglashdir. Bunga erishish uchun odam shariat hukmlarini toʻla bajarishi va qalbida Yaratguvchiga muhabbat boʻlishi kerak.

Shu timsollar hikmatlarning badiiy taʼsirini oshirib, ularning falsafiy mazmunini kengaytiradi. Ahmad Yassaviy hikmatlarining uslubi ham oʻziga xos. Shoir murakkab diniy va falsafiy fikrlarni oddiy, xalqona va ravon tilda bayon qiladi. Hikmatlarda takror, murojaat, zidlash, parallelizm va ritmik tuzilish kabi usullar keng qoʻllanadi. Bu usullar asarlarning esda qolarli boʻlishiga va xalq orasida tez tarqalishiga xizmat qilgan. Shu jihatdan Ahmad Yassaviy ijodi xalq ogʻzaki ijodi va yozma adabiyot oʻrtasidagi muhim bogʻlovchi boʻgʻin vazifasini bajargan.

Xulosa

Xulosa qilib aytadigan boʻlsam, Ahmad Yassaviy hikmatlari obraz, mavzu va timsol jihatidan boy va mazmunli asarlardir. Ularda insonni komillikka yetaklash, nafsni tiyish, qalbni poklash, dunyo oʻtkinchiligini anglash va Haq yoʻlida sobit boʻlish gʻoyalari markaziy oʻrin tutadi.

Nafs, qalb, yoʻl, nur, tuproq, gul va koʻngil kabi obraz hamda timsollar orqali shoir tasavvufiy haqiqatlarni xalqona va badiiy taʼsirchan shaklda ifoda etgan. Shu bois Ahmad Yassaviy hikmatlari oʻzbek va turkiy adabiyotning bebaho maʼnaviy merosi sifatida qadrlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ahmad Yassaviy. Devoni hikmat.
2. Komilov N. Tasavvuf.
3. Haqqul I. Tasavvuf va adabiyot.
4. Shomuhamedov Sh. Turkiy adabiyot tarixi.
5. Yassaviy ijodi haqida ilmiy maqolalar toʻplami.
6. Oʻzbek mumtoz adabiyoti darsliklari.
7. Tasavvuf adabiyoti boʻyicha tadqiqotlar.